

KONSTITUTSIYASI XALQ FAROVONLIGINING ASOSI

*Yangiboyev Farhod Rashidovich O'zbekiston
Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi
huquq fani o'qituvchisi 93-769-95-89
Farhod.yangiboyev@list.ru*

ANNOTATSIYA: Har bir davlat va jamiyat o`ziga xos rivojlanish modellariga ega bo`lib, ular bir-biridan shakli, mazmuni jihatdan farq qilsa ham, umumiylar rivojlanish qonuniyatlarini istisno qilmaydi. Bir tomondan bunday umumiylar insoniyatning ezgu maqsadlari doirasida uyushish, ji`slashish manfaatlarini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, milliy taraqqiyotdagi o`ziga xoslik muayyan davlatning siyosiy tuzumi, iqqisodiy hayoti, madaniy turmushi, g`oyaviy-mafkuraviy muhiti ta`sirida shakllanadi.

KALIT SO'ZLAR: Konstitutsiya, urf-odatlar, insonparvarlik, taraqqiyot, rivojlanish, yuridik hujjati. Konstitutsiyamiz xalqimizning asriy an'analari va urf-odatlariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo`lib, yurtdoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, insonparvarlik, halollik, mardlik va sabr-bardosh, adolat hamda bilim, ma'rifatga intilish hissini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo`lib, konstitutsiyaviy tuzum, davlat va jamiyat qurilishi asoslari, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda davlat ramzlarini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasida chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqda, milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar borgan sari ko'proq namoyon bo'lmoqda, insonning huquqlari va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni ko'zdatutgan huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayoni kechmoqda. Insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan huquqiy demokratik jamiyat barpo etish va uni mustahkamlash xalqimiz uchun ezgu maqsaddir.

Konstitutsiya shunday yuridik hujjatki, uning qoidalari hamisha hukmronlik, birinchilik, ta'sis kuchiga ega. Boshqa qonunlarning hammasi konstitutsiyaviy me'yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi, ro'yobga chiqaradi. Uning asosida barcha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi. Konstitutsiyamizning fazilati, o`ziga xos jihat shundaki, u xalqimizning irodasini, ruhiyati, ijtimoiy ongi va madaniyatini o'zida aks ettirgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllantirilgan va sayqal toptirilgan madaniy qadriyatlari, fazilatlari, tarixiy va milliy an'analari, sharqona donoligi va tafakkuri xazinasi

durdonalari mujassam bo‘lib, o‘zining huquqiy ifodasini topgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishida umuminsoniy qadriyatlardan, inson huquqlari haqidagi umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy qoidalari hamda turli mamlakatlar va davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalaridan ham keng foydalanildi.

“Bizning Konstitutsiyamiz haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hujjatdir... Konstitutsiya eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan, u dunyo miqyosida ham har qanday ilg‘or davlat Konstitutsiyasi bilan bemalol kuch sinashmoqda”. Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ta’kidlanganidek, Konstitutsiyamizga O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan insonlarning dunyoqarashini, ularga xos o‘zaro munosabatlarni, xususiyatlarni, mehroqibat, odamiylik, o‘zga millat va elatlarga nisbatan hurmat, ilmu fanga intilish, ornomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlar asos qilib olingan va u tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do‘slik kabi ulug‘ g‘oyalarga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijobiy jihatlari, tamomila yangi tomonlari bilan avvalgi Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. Konstitutsiyani o‘rganish jarayonida ana shu masalaga jiddiy e’tibor berish zarurligini alohida ta’kidlash zarur. Konstitutsiya tushunchasini ochib berishda uning mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlardan turli huquqiy oqimlar vakillari Konstitutsiya mohiyatini turlicha ta`riflaydilar. Masalan, tabiiy huquq maktabi vakillari Konstitutsiya – xalq (millat)ning umumiylar irodasini ifodalovchi o‘ziga xos ijtimoiy shartnomadir deydilar. Normativ huquq nazariyasi vakillari esa Konstitutsiya bu oliy huquqiy normaning ifoda bo`lishidir deb tushunadilar. Marksizm-leninizm Konstitutsiyani sinfiy kurashning mahsuli sifatida baholaydi. Mening fikrimcha, Konstitutsiya – umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni eng umumlashgan in`ikosidir. 1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat – mustaqil O‘zbekiston Respublikasi bunyod etilganligini qonunan mustahkamladi. Prezidentimiz O‘zbekiston Konstitutsiyasining o‘ziga xosligi, sobiq tuzum davridagi Konstitutsiyadan farqi nimadan iboratligini quyidagicha ifodaladi: “Avvalam bor, bu Konstitutsiya o‘zining tub mohiyati, falsafasi, g‘oyasiga ko‘ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo‘q. Jamiki dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i – inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda “fuqaro-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilonqa huquqiy yechimini topishga intildik.” Har qaysi davlat huquq tizimida bir talay qonunlar mavjud bo’ladi. Ammo ular orasida eng asosiysi deb e’tirof etiladigan birdan-bir qonun mayjudki, u ham bo’lsa, konstitutsiyadir. Lotincha «constitutio» so‘zining tarjimasи, «nizom, qoidalari» degan ma’nolarni anglatadi. "Konstitutsiya" tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo’lgan. "Konstitutsiya"ga turli xil ta`riflar berilgan bo`lib, ularidan bir necha misollar keltiramiz. Birinchi ta`rif: fransuz davlatshunos olimi J.Byurdoning

Konstitutsiyaga bergen ta`rifi: "Konstitutsiya - siyosiy hokimiyatlarni tayinlash, tashkil etish va faoliyat ko`rsatishga oid qoidalar yig`indisidir". Ikkinchchi ta`rifda esa ushbu (yuqoridagi) ta`rifga amerikalik olim K.Berd "Fuqarolar erkinliklari" tushunchasini qo`shadi. Uchinchi ta`rif sifatida Nigeriyalik konstitutsiyashunos B.Nvabuyezening ta`rifini berashimiz mumkin: "Konstitutsiya - bu qonun kuchiga ega bo`lgan formal hujjat bo`lib, uning yordamida jamiyat o`z-o`zini boshqaradi hamda o`zining turli idoralari bilan shuningdek, bu idoralarning fuqarolar bilan munosabatlarini o`rnatadi".

Ko`pchilik hollarda konstitutsiyaga u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar predmetiga qarab tushuncha beriladi. Shu ma`noda, Konstitutsiya - davlatning Asosiy Qonuni bo`lib, davlat hokimiyatini tashkil etishni va hokimiyat, jamiyat va shaxsning o`zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Xulosa: O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o`zgartish va qo`shimchalar hokimiyat va boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirish, «kuchli davlatdan —kuchli fuqarolik jamiyati sari» prinsipi bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta`minlash, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, mamlakat Prezidenti vazifalarini aniq-ravshan belgilash hamda huquqiy me`yorlar doirasida cheklash, shuningdek islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta`sirini kuchaytirish va hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiyqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro`yobga chiqarish borasidagi mas`uliyatini oshirish, davlat boshqaruv organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o`rnatish maqsadlarida kiritilgan.

Shunday qilib, O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga kiritilgan har bir qo`shimcha va o`zgartirishlar besabab amalga oshirilmagan edi. Jamiyat taraqqiyot cho`qqisiga ko`tarilgan sari uning qonunlariga ham taraqqiyotga mos tarzda o`zgartirishlar kiritish hayotiy zaruratga aylanib boradi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o`zgartirishlarning davlat boshqaruviiga taaluqli bo`lgan eng muhimlari xalq muhokamasiga taqdim etilib, ularning fikr va mulohazalarini o`rgangan holda hamda har bir o`zgartirish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a`zolari tomonidan chuqur tahlil etilgach kiritilgan. O`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritish ham jamiyat yuksalishi, aholining siyosiy ong darajasining o`sganligi, davlat boshqaruvидаги takomillashishdan dalolat beradi. Demak O`zbekiston Respublikasi jahon hamjamiytiga yuz tutib, uning talablariga mos tarzda rivojlanib borar ekan Konstitutsiya va qonunlarga ham o`zgartirishlar kiritib boorish zarurdir. SHunday ekan, bu jarayon hech qachon to`xtab qolmaydi. Uning to`xtab qolishi rivojlanishning to`xtab qolishi demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga Xalq so‘zi» , 2014 yil 17 apreldagi 74 (6004)-soni
2. Saidov A H. Jahon Konstitutsiyaviy amaliyoti va O’zbekiston Respublikasining asosiy qonuni. T:1992
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T:”O’zbekiston” 2015 4. <http://www.google.uz> 5. <http://www.ziyonet.uz>.